

QO‘QON DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI
ILMIY XABARLARI
(2025-yil 3-son)



FILOLOGIYA
PHILOLOGY

ABDULLA ORIPOV SHE‘RIYATIDA SATIRA VA YUMORNING ISHLATILISHI

*Muxabbat Ibrohimova,
O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti
2-bosqich talabasi.
ibrohimovamuxabbat974@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov she‘riyati va hajviy yo‘nalishdagi ijodiy na‘munalari talili qilingan.

Kalit so‘zlar: hajviyot, satira, yumor, she‘riyat, tanqid, badiiy mahorat.

Абстрактный. В статье анализируется поэтическое и сатирическое творчество народного поэта Узбекистана Абдуллы Орипова.

Ключевые слова: сатира, юмор, поэзия, критика, художественное мастерство.

Abstract. This article analyzes the poetry and satirical creative works of the People's Poet of Uzbekistan Abdulla Oripov.

Keywords: satire, satire, humor, poetry, criticism, artistic skill.

KIRISH. Hajviya – badiiy adabiyot turlaridan biri bo‘lib, bu turdagi asarlarda tanqidiy ruh yetakchilik qiladi. Shuningdek, voqealarni bo‘rttirib tasvirlash, mubolag‘a va fantaziyadan keng foydalanish ham hajvnavislikka xos xususiyatlardandir. Hajviyot kishilar hayotidagi ayrim illatlarni yo‘qotishga, kamchiliklarni tuzatishga xizmat qilgani uchun ham qadimdan o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Satirik yo‘nalish taraqqiyotga sezilarli hissa qo‘shgan g‘azal mulkining sulmoni Alisher Navoiydir. O‘zbek satirasi Navoiy ijodida birinchi bor shakllandi, adabiy turlar qatoridan grajdanlik huquqini oldi, shoirning o‘zi esa “bizning adabiyotda satiraning ilk ustoz” (Oybek) bo‘ldi. Boshqacha aytganda, Navoiy ijodidagi satira o‘zbek satirasi rivojining, amalda, birinchi etapini tashkil etdi.[1.7]

ADABIYOTLAR TAHLILI. XIX asrning ikkinchi yarmi hajvnavislik sohasida yangi bir bosqich bo‘ldi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Bu davrda yashab ijod etgan Maxmur, Muqimiy, Zavqiy kabi iste‘dod egalaring asarlarida bu an‘ananing eng sara namunalarini uchratamiz. Shoirarning asarlarida ilk mustamlakachilik davrining illatlari, mahalliy boylarning nodonligi, o‘sha davr turmushidagi achchiq haqiqat, adolatsizlik, ilmsizlik, ochko‘zlik, iqtisodiy tanglik kabi mavzular keskin tanqid qilinadi. Jumladan, Muqimiy “Tanobchilar” stairasida “tanob” voqeasi misolida amaldorlar zulmidan tinkasi qurigan mehnatkash xalq qiyofasi, hukumatning soliq siyosati bilan oddiy xalqning boshiga yog‘dirgan kulfatlarini ochib beradi.

Dotsent, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori Ravshanova Gulruxbegim o‘zining dissertatsiyasida shunday fikr bildirgan: “Ma’rifatparlik adabiyotining ilg‘or vakillari xalq boshiga yozilgan azob-uqubatlarni ich-ichidan his qilib, ularni badiiy shakllarda turfa tasvirlarda idroklash tamoyilini boshlab berdi. Muqimiy, Zavqiy, Furqat, Avaz O‘tar singari shoirlar ijodida satirik kayfiyat Turkiston o‘lkasida ro‘y berayotgan xalqning og‘ir turmushini aks ettirishga kirishdilar.[2.18]

TADQIQOT METODOLOGIYASI. XX asrga kelib hajvnavislik an‘analarini davom ettirgan Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Anvar Obidjon singari shoirlar o‘z uslublarida satira va yumor orqali jamiyatga o‘z munosabatlarini bildirgan. Jumladan, bu davr adabiy muhitining gullab yashnashiga oz hissasini qo‘shgan hassos shoir Abdulla Oripov she‘riyating salmoqli qismini hajviyot tashkil qiladi. Ustoz shoir bu turdagi she‘rlarini quyidagicha izohlaydi: “Mening ijodimda yolg‘izlik, mahzunlik tuyg‘ulari ko‘p uchraydi, deya dakki berishgan va buning sababini sharhlashgan ham. Aslida esa mening tabiatim o‘zi shunaqaroq bo‘lsa kerak. Ikkinchidan, meni qiyinagan savollarga javob topolmay o‘rtangandirman, uchinchidan, shu hasad degan baloning hujumiga juda erta duch keldim. Bularning barchasi satrlarimda qandaydir shaklda aks etgan bo‘lsa ajab emas. Chunonchi, hajviy ruhdagi she‘rlar ham qandaydir sun‘iy ravishda yaratilgan emas. Ko‘p qatori meni ham laqillatgan, aldagan odamlarning son-sanog‘i yo‘q. Haligiday achchiqroq she‘rlarning yozilishiga, albatta, o‘shalar sabab bo‘lgan.[3.11]

Ma’lumki, asarda obrazlar yetakchi o‘rin egallaydi, asar voqealarini gavdalantiradi. Abdulla Oripov ham ijodida obrazlar orqali jamiyatga, odamlarga bo‘lgan munosabatini ifoda etadi. Uning she‘riyatida hajviy, satirik dunyoqarash bilan yo‘g‘rilgan she‘rlarning salmog‘i yuqori. E’tibor qaratadigan bo‘lsak, Abdulla Oripovning aksariyat she‘rlarida yengil yumor, kinoya, hajviy tafakkur singib ketgan. Shoirning o‘zi aytganidek har bitta she‘rning o‘z turtkisi bor ya’ni hayotida uchratgan ayrim kimsalarga tanqid tarzida yozilgan. Abdulla Oripov uslubiga kulguning ahamiyati, uning hajvnavislik mahoratini bir nechta she‘rlari misolida ko‘rib chiqamiz:

Shoir qalamiga mansub “Echki” she‘rida echkining xarakteri orqali hayotdagi o‘zboshimcha, o‘zicha bilimdon, faqat o‘zini o‘ylaydigan kimsalar obrazi ochib berilgan. Mazkur she‘r quyidagi jumlar bilan boshlanadi:

Hammaga ma’lumdir echkining fe’li,
Qozonga tushguncha tinch tura olmas.
Doim egri bo‘lgay tanlagan yo‘li,
Hunar ko‘rsatmasa jim yura olmas.[4.236]

Barchamizga ma’lumki, echki hayotda ham foydadan zarari ko‘p bo‘lgan, qitmir hayvon. Shoir ushbu she‘rda “echki” obrazi orqali jamiyatdagi ayrim “kuchli aql-u farosat egalari” ni, o‘z qilmishlarining oqibati yomon bo‘lishini ko‘rsatib beradi, ularni hayotda “echki” kabi bo‘lmaslikka undaydi. She‘rning so‘nggida echkining bu kabi yomon illatlari o‘z boshiga yetishiga guvoh bo‘lamiz. Bir kuni echkining g‘ayrati qo‘zib, bir giyoh ham o‘smagan baland

qoyaga chiqadi va yuksalik zavqidan bahramand bo‘ladi. Eng yomoni shuki, echki bu qoyadan na o‘zi tusholadi, na unga kimdir yordam bera oladi, shu ko‘yi tonggacha qoya tepasida qolib ketadi. Tongda tinchimas echkinig holini ko‘rgan cho‘pon har holda taom bo‘lar deya uni miltig‘i bilan urib tushiradi:

Bir bora qaynaydi har holda qozon,
Suruv ro‘yxatidan uni o‘chirdi
Darhol o‘qladi-yu miltig‘in cho‘pon,
Echkini qoyadan urib tushirdi.[4.237]

Abdulla Oripov hajviyotini tadqiq qilgan yosh olimlardan biri Mahbuba Axrorova shoir mahoratini shunday tasvirlaydi: “Ko‘p hollarda hajviy asarlarda murakkab hajviy tiplar o‘zlarini o‘zlari fosh etadilar. Ayniqsa, Abdulla Oripov uslubiga xos xususiyatlardan biri shuki – bu xususiyat uni boshqa hajvchi ijodkorlardan ajratib turadi – ko‘pchilik hajviyalarida qahramonning nutqi orqali o‘zini fosh etishdir.” Shoirning “Yozg‘uvchilikka ariza” she‘rida bu xususiyat yaqqol aks etadi. Mazkur she‘rda halol mehnat evaziga pul topish o‘rniga g‘alamislik, pastkashlik qilib, odamlarga yomonlik qilish, zarar keltirish yo‘li bilan daromad qilish yo‘lini tanlagan insonlar hajv qilinadi. She‘r bir g‘alamis tilidan aytilgan bo‘lib, u o‘zining tili bilan xudbunligini fosh qiladi:

Meni nazariga ilmaydi birov,
Sizga shu gaplarni aytayin tikka.
Kecha bir davrada o‘ynadim garov,
Meni qabul qiling yozg‘uvchilikka.[4.5]

Shoir qalamiga mansub 1988-yilda yozilgan “Maymuniyat” deb nomlangan she‘r ham majoziy usulda yozilgan bo‘lib, she‘r orqali yozishni eplolmaydigan, ko‘chirmakash, “maymunona fikrlash va dunyoqarashga ega bo‘lgan ba‘zi shoirlar hajv qilinadi. Yuqorida aytganimiz kabi bu she‘rda ham obraz o‘zini-o‘zi fosh qiladi:

Derdi: - Olam gultojimiz biz maymuniyat,
Oh, insonlar. Qilolmasman ularga toqat.
Shu borada maymun chora izlardi faqat.
Oxir o‘ylab maymun topdi shundoq naqlni:
Insonlarning orasida Darwin, aqlli,
Toping uni. Ulug‘ olim bizni alqagan,
Gulxaniy ham, Krilov ham bizdan tarqagan.[4.56]

NATIJA VA MUHOKAMALAR

Abdulla Oripov bu she‘rida maymun obrazi orqali hayotdagi maqtanchoq, o‘ziga yuqori baho beradigan kimsalarni tasvirlab beradi. Faqatgina insonlar emas, balki she‘rlari orqali mahalliy xalqning og‘ir turmushini, ularning boshiga tushgan qiyinchiliklarning kelib chiqish sabablari fosh etilgan. Fikrimizning dalili sifatida “Ranjkom” asarini keltirishimiz mumkin. Asar 1988-yilda nashr qilingan bo‘lib, unda nafsiga qul bo‘lgan, amal va boylik uchun hech narsadan qaytmaydigan kimsalar tasvirlangan. Asar qahramonlari atigi olti nafar bo‘lib, shoir

ularni ikki guruhga bo‘ladi ya’ni manfaatparast zolimlar (3 nafar) va mazlumlar(3 nafar). Qahramonlar soni oz bo‘lsa-da, shoir bu obrazlarda jamiyatda uchraydigan bir qancha insonlar qiyofasini chizib bergan. Tashkilotning bosh masadi quyidagi jummalarda bayon etilgan:

Biz ma’naviy tashkilotmiz – “Ranjkom”miz ya’ni,
O‘zgalarni ranjitmoqlik bizning ishimiz.
Bab-baravar “siylagaymiz” barcha-barchani,
Duch kelganga qadaladi o‘tkir nishimiz.

E’tibor qaratadigan bo‘lsak, tashkilot nomi ham “ranj” so‘zidan yasalgan ya’ni ularning ularning ishi insonlarni ranjitishdan, ularni xatarli yo‘llarga boshlashdan iborat.

Shoirning 1994-yilda yozilgan“Qaysar bola” deb nomlangan she’ri ham hajviy usulda yozilgan. She’rda tasvirlanishicha, bir bola hammani sensirashni odat qilgan, ota-onasini ham, muallimni ham sen der emish. Bir kun muallim unga barchani siz deyman deb yuz marta yozib kelishni vazifa qilib beribdi. Bola bu vazifani a’lo darajada bajaribdi va ustoziga shunday javob qilibdi:

Muallim shod: Men senga,
Ha,ishongan edimda-da..
Bola dermish: Seni bir
Xursand qilay dedim-da..[4.104]

Abdulla Oripovning ushbu she’ri sof hajviy mazmunda bo‘lib, boshqalaridan ajralib turadi. Mazkur she’rda “tartibsiz bola” va “muallim” obrazlar hisoblanadi va bu kabi sof yumoristik kulgi tasvirlangan she’rlar shoir ijodida kam uchraydi.

XULOSA. Shoirning she’riyatidan bahramand bo‘lar ekanmiz, uning hajvnavislik sohasida barakali ijod qilganligiga guvoh bo‘lamiz. Abdulla Oripov faqatgina jamiyatdagi milliy qadriyatlarimizni, o‘zligini unutayotgan, odamiylik sifatlaridan yiroqlashayotgan kimsalarnigina hajv qilmasdan, hajviy qahramonlar orqali oddiy xalq turmush darajasini ham, mavjud tuzumdan norozilik tuyg‘ulari va ijtimoiy adolat g‘oyalarini tasvirlab bergan. Shoirning aytganidan xulosa qilishimiz mumkinki, asarlarida tasvirlangan maqtanchoq, manman, ikkiyuzlamachi kabi yomon illatlarga ega bo‘lgan insonlarga hayoti davomida duch kelgan va she’rlari orqali ularda insoniy sifatlarni uyg‘otishga harakat qilgan. O‘ziga xos uslubi bilan hajvnavislik sohasiga munosib hissa qo‘shgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurashid Abdug‘afurov. Navoiy ijodida satira. O‘zbekiston SSR “Fan” nashriyoti. Toshkent – 1972.
2. Ravshanova Gulruxbegim. Yangi o‘zbek she’riyatida hajviyotning tadrijiy takomili. Qarshi – 2024.
3. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. 1-jild: She’rlar va dostonlar. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 2000.

4. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar. 2-jild. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. Toshkent – 2001.
5. Sadulla Mirzayev. XX asr o‘zbek adabiyoti. – T.: “Yangi asr avlodi”, 2005.
6. Abdulla Oripov. Tanlangan asarlar . 4-jild. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. Toshkent – 2001.
7. Abdulla Oripov. Quyosh bekati: She‘rlar, maqolalar, suhbatlar, tarj. – T.: “Sharq”, 2010.